



**THE ROLE OF WOMEN IN THE EDUCATIONAL PROCESS DURING THE
SECOND WORLD WAR
(USING THE EXAMPLE OF THE SOUTHERN REGIONS)**

Xolida Nurboyevna Eshonqulova

researcher

Karshi State University

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: World War II, Nazi Germany, Soviet Union, region, ruble, collective farm, evacuation, "red Uzbekistan".

Received: 10.09.24

Accepted: 12.09.24

Published: 14.09.24

Abstract: It is known that the war years are one of the most threatening, and during this period there are specific problems and shortcomings in the field of education, as in all areas. This article provides information about problematic situations in the education system during the Second World War, the need to pay special attention to the processes of training female teachers and their activities.

**IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA XOTIN-
QIZLARNING O'RNI
(JANUBIY VILOYATLAR MISOLIDA)**

Xolida Nurboyevna Eshonqulova

tadqiqotchi

Qarshi davlat universiteti,

Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ikkinchi jahon urushi, fashistlar germaniyasi, Sovet Ittifoqi, oblast, rubl, kolxoz, evakuatsiya, "Qizil O'zbekiston".

Annotatsiya: Ma'lumki urush yillari eng tahlikali davrlardan biri bo'lib, ushbu davrda barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham o'ziga xos muammo va kamchiliklar uchraydi. Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida ta'lim tizimidagi muammoli holatlar, zarurat yuzasidan xotin-qizlardan o'qituvchi kadrlar tayyorlash jarayonlariga alohida e'tibor qaratilganligi va ularning faoliyati xususida ma'lumot beriladi.

РОЛЬ ЖЕНЩИН В УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ НА ПРИМЕРЕ ЮЖНЫХ РЕГИОНОВ)

Холида Нурбоевна Эшонкулова

исследователь

Каршинский Государственный Университет

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Вторая мировая война, нацистская Германия, Советский Союз, область, рубль, колхоз, эвакуация, “Красный Узбекистан”.

Аннотация: Как известно, годы войны-один из самых опасных периодов, и в этот период, как и во всех областях, в сфере образования возникают свои проблемы и недостатки. В данной статье дается информация о проблемных ситуациях в системе образования в годы второй мировой войны, о необходимости уделять особое внимание процессам подготовки педагогических кадров из женщин и их деятельности.

KIRISH

Ikkinchi jahon urushi o‘tmish tariximizda misli ko‘rilmagan darajada insoniyat boshiga og‘ir kulfatlarni solgan urush bo‘ldi. Fashistlar Germaniyasi 1941- yilning 22-iyunida Sovet Ittifoqi hududiga hujum qildi. Shu kundan Sovet Ittifoqida yashayotgan barcha xalqlar urushga safarbar etildi. Mazkur holat butun mamlakat hayotini urush davri talablariga moslab qayta qurishni, barcha kuch va vositalarni ishga solishni talab etar edi.

Urushning dastlabki kunlaridan boshlab madaniy soha faoliyatida ham murakkab vaziyat vujudga keldi. Ayniqsa, ta‘lim tizimi, madaniy – ma‘rifiy sohalarda faoliyat yuritib kelayotgan mutaxassislarining frontga safarbar etilishi, ularning ish faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

ASOSIY QISM

1940-1941 o‘quv yilida O‘zbekiston hududida 4795 ta maktab faoliyat ko‘rsatdi. Bu davrda Surxondaryo viloyatidagi maktablar soni 303 tani tashkil qildi [1:317]. Ulardan faqat 9 tasi o‘rta maktablar edi. Qashqadaryo viloyatida 470 ta maktab bo‘lib, ularda 192,6 ming o‘quvchi ta‘lim olayotgan edi [2:217].

To‘liqsiz o‘rta maktablar soni 23 tani tashkil etdi. Urushi yillarida ta‘lim tizimidagi eng katta muammolardan biri maktablarni o‘qituvchi kadrlar bilan ta‘minlash masalasi edi. Chunki ta‘lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning 76-80 foizi erkaklardan iborat edi. Ularning asosiy qismi harakatdagi armiyaga, ishlab chiqarishga jalb etildi. Bu holat maktablardagi ahvolni ancha og‘irlashtirdi. Chunki urushgacha bo‘lgan davrda ham respublika maktablarida 6700 o‘qituvchi, jumladan Qashqadaryo oblastida esa 500 dan ortiq o‘qituvchi kadrlar yetishmayotgan edi. Bu holat ta‘lim tizimi faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi [3:132].

Kadrlarga bo'lgan ehtiyojni to'ldirish maqsadida pedagogika bilim yurtlarida o'qish muddati uch yildan ikki yilga qisqartirildi. Eng asosiysi xotin-qizlardan o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur davrda Qashqadaryo hududi Buxoro oblasti tarkibida edi.

1941-yilda Qarshi shahrida (1927-yilda tashkil etilgan [4:44]) faoliyat yuritib kelayotgan pedagogika bilim yurtini 90 nafar pedagoglar tamomladi. Mazkur yilning noyabr oyida yuqoridagi sabablarga ko'ra bilim yurti tugatilib, 15-sonli Buxoro pedagogika bilim yurtiga qo'shib yuborildi. Bilim yurti binosidan xarbiy maqsadlar uchun foydalanildi. Mazkur holat Qashqadaryo oblasti maktablarini o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlash jarayonini yanada qiyinlashtirdi.

Pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojni bartaraf etish maqsadida doimiy ravishda turli xil muddatlarga mo'ljallangan kurslar tashkil etish yo'lga qo'yildi. Bunday kurslar, asosan, uch va olti oyga mo'ljallangan bo'lib, pedagogika bilim yurtlari ixtiyorida tashkil etildi. 1-4 sinf o'quvchilari uchun o'zbek va rus tili fanlaridan dars o'tuvchi o'qituvchilarni tayyorlovchi kurslar faoliyat olib bordi. Zarurat yuzasidan kurslarga 7-8 sinflarni tugatgan yigit-qizlar ham jalb etildi.

Shuningdek xotin-qizlardan o'qituvchi kadrlar tayyorlash jarayonlariga ham e'tibor qaratildi. Jumladan, 1942-yilda birgina Koson rayoni maktablarining boshlang'ich sinflari uchun 37 nafar xotin-qizlar ana shunday kurslarni tugatdi. Tinglovchilarga kundalik oziq-ovqat ehtiyojlari uchun, kolxozlarning daromadidan 400 gram non, 100 gram un, 0,25 gram guruch, 0,25 gram yog' berildi [5:113]. Mazkur davrda Koson rayoni hududidagi maktablarda 90 nafar xotin-qiz faoliyat yuritgan bo'lsa, 1944–1945 o'quv yilida ularning soni 255 nafarni tashkil etdi.

Mazkur maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida ta'lim tizimidagi muammoli holatlar, zarurat yuzasidan xotin-qizlardan o'qituvchi kadrlar tayyorlash jarayonlariga alohida e'tibor qaratilganligi va ularning faoliyatini yoritib berishda sintez, kompleks yondashuv, tizimli yondashuv, kontent analiz, qiyosiy tahlil, dialektik, usullaridan foydalanildi.

1943-yilga kelib maorif tizimiga ajratilayotgan mablag'lar miqdorining ko'payganligini ko'rish mumkin. Masalan, 1943-yilda respublika xalq maorifi uchun 472224 rubl, 1944-yilda 670147 rubl [6:73], 1945-yilda 704909 rubl mablag' ajratildi [6:92]. Qashqadaryo oblastida 1942-yilda xalq ta'limi ehtiyojlari uchun 22916 ming rubl yoki umumiy byudjetning 46 foizi miqdorida mablag' ajratilgan bo'lsa, 1943-yil 26679 ming rubl, 1944-yil 47382 ming rubl, 1945-yilga kelib 52321 ming rubl yoki 60,1 foiz miqdorida mablag' ajratildi [8:82].

Qarshi shahar maktablari uchun 1942–1943 o'quv yilida 1058,6 ming, 1943–1944 o'quv yilida 1933,3 ming so'm ajratildi. Ajratilayotgan mablag'lardan o'qituvchi kadrlar tayyorlash jarayoniga ham sarflandi. Mazkur yilda Qarshi pedagogika bilim yurti qaytadan tashkil etildi va 130 nafar talaba qabul qilindi. Shuningdek, bu davrda Surxondaryo oblastining Termiz shahridagi pedagogika bilim yurtida ham o'rta maxsus ma'lumotli kadrlar tayyorlab kelinmoqda edi. Mazkur

davrda O‘zbekistonning janubiy hududlarida bironta ham oliy ma’lumotli o‘qituvchi kadrlar tayyorlovchi o‘quv yurti yo‘q edi.

1943-yilning 20-yanvarida Qashqadaryo oblasti qayta tashkil etildi. Mazkur yilning 1-yanvariga kelib O‘zbekistonga ko‘chirib keltirilgan aholi orasidan 2108 nafari maktablarda o‘qituvchilik qildi. Ularning 869 nafari Ukrainadan, 641 nafari Rossiyadan, 213 nafari Belorussiyadan kelgan kishilar edi. Umuman, rus tili o‘qituvchilarining 60 foizi evakuatsiya qilingan pedagoglar edi.

Masalan, Qarshi shahridagi maktablarda D.Y. Ayzen, R.A. Glinka, Y. Orlova, L. Dolgopolskaya, S.N. Usacheva, A.N. Yentova kabi pedagoglar faoliyat olib bordi[9]. Mazkur holat maktablarda rus tili, chet tili, jismoniy tarbiya, harbiy ta’lim kabi fanlarning o‘qitilishida ijobiy samara berdi. Mazkur yilda Qashqadaryo oblasti maktablarida 2050 nafar o‘qituvchi ishlagan bo‘lsa, 1944–1945 o‘quv yilida ularning soni 2723 nafarni tashkil etdi. Ularning 69 nafari oliy ma’lumotli, 165 nafari to‘liqsiz oliy, 501 nafari o‘rta va 1988 nafari o‘rta ma’lumotdan past bo‘lgan pedagoglardan iborat edi.

Qashqadaryo oblastida urush arafasida xotin-qiz o‘qituvchilar juda ozchilikni tashkil etardi. Urush yillarida ahvol o‘zgardi. Harakatdagi armiyaga, turli-xildagi qurilish ishlariga ketgan erkak pedagoglar o‘rnini xotin-qiz o‘qituvchilar egalladi.

1943–1944 o‘quv yilida Buxoro o‘qituvchilar instituti, uning Shofirkon va G‘ijduvon rayonlaridagi filiallarida Qashqadaryo viloyati shahar va rayonlaridagi maktablar uchun pedagog kadrlar tayyorlash ishlari yo‘lga qo‘yildi. Mazkur o‘quv yilida ularda 115 nafar bitiruvchilarning 36 nafari Qashqadaryo va Surxondaryo oblastlari maktablari uchun jo‘natildi.

1944-yilda Buxoro o‘qituvchilar instituti G‘ijduvon filialining fizika-matematika fakultetini 7 kishi bitirib chiqdi. Ularning 6 nafari xotin-qizlar bo‘lib, 2 nafari Qashqadaryo viloyati maktablariga ishga yuborildi. Mazkur o‘quv yilida Qashqadaryo viloyati maktablarida 1036 nafar o‘qituvchi ayol ishlagan bo‘lsa,

1944–1945 o‘quv yilida 1248 nafar xotin-qiz o‘qituvchilar faoliyat olib bordi. Ularning ko‘pchiligi qisqa muddatli kurslarni tugatgan o‘qituvchi kadrlar edi. Shuningdek, til va adabiyot bo‘limini tugatgan 17 nafar talabaning 5 nafari, tarix bo‘limini tugatgan talabalarning 2 nafari Qashqadaryo oblasti maktablariga ishga yuborildi.

1945-yilda Qarshi pedagogika bilim yurti sirtqi bo‘limida 193 nafar talaba o‘qidi. Ularning 46 nafari xotin-qizlar edi. Mazkur yilning 16-iyunida Buxoro o‘qituvchilar institutining Qarshi filialini tashkil etish masalasi ko‘rib chiqildi. 1945-yilning 1-sentabrida Buxoro birlashgan pedagogika va o‘qituvchilar institutining Qarshi filiali sifatida tashkil etildi [10:3]. Mazkur yilda tarix-filologiya va chet tillar fakultetlarining kunduzgi bo‘limlariga talabalar qabul qilindi.

Shuningdek, Qarshi pedagogika bilim yurti ixtiyorida bir yillik tayyorlov bo‘limi ham tashkil etildi.

Xalq maorifi namoyondalari maorif ishlarini urush davri talablari asosida olib borish bilan birga aholi o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini ham amalga oshirdilar. O‘qituvchi kadrlarning bevosita ishtiroki bilan oblast rayonlarida suhbatlar uyushtirish, jamoa bo‘lib radio eshitish, gazeta o‘qish ishlari amalga oshirildi. Bundan tashqari, aholi orasida ma‘ruzalar o‘qish jarayonida ham ular faol ishtirok etishdi.

Targ‘ibot-tashviqot ishlarida yetakchi o‘rinni egallagan xalq maorifi xodimlari tomonidan joylarda, 12 mingga yaqin ma‘ruza, suhbatlar o‘tkazildi. Ularda yarim milliondan oshiq kishi qatnashdi. Beshkent rayonidagi “Qizil O‘zbekiston” dehqon xo‘jaligi hududidagi maktab o‘qituvchisi Shodmonoy Temirova yoshlar o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish ishlariga rahbarlik qildi.

Shuningdek, mazkur xo‘jalikda gazeta, jangovar varaqalar chiqarish ishlari bilan shug‘ullandi. Shu bilan birga, g‘allachilik brigadasi tuzib, o‘rim-yig‘im ishlarida ishtirok etishdi va reja topshiriqlarni 200 foizdan oshirib bajarishga erishib, xizmatlari evaziga O‘zSSR Oliy Sovetining “Faxriy yorlig‘i” bilan mukofotlandi. Rayondagi Engels nomli kolxozda yashovchi o‘qituvchi I. Shahriyeva ham urush yillarida targ‘ibot-tashviqot ishlari bilan shug‘ullandi. U xo‘jalik dehqonlariga frontlardagi xabarlar, mamlakat ichkarisida mehnatkashlarning qo‘lga kiritayotgan yutuqlari haqida so‘zlab berdi. Devoriy gazeta va jangovor varaqalar chiqarishga yordamlashdi, ta‘til vaqtlarida xo‘jalikka rahbarlik qilish ishlarida faol qatnashdi.

Oblastda bunday faol targ‘ibotchi muallimlardan shahrisabzlik A.A. Jukova, qarshilik Mo‘minova, Mo‘minov, Rahmatov, Jo‘rayev, Komilov, Ravshanova, Karimov, kosonlik I. Ismoilova, yakkabog‘lik X. Qayumov, Sharif Davlatov kabi maorif xodimlari targ‘ibot-tashviqot ishlarida ishtirok etishdi. Ularning ko‘pchiligi xotin-qiz o‘qituvchilar edi.

XULOSA

Xullas, ikkinchi jahon urushi yillarida barcha sohalarda shuningdek ta‘lim tizimi muasasalari faoliyatida ham muammolar yuzaga keldi. Ta‘lim tizimi sohasiga ajratilayotgan mablag‘lar qisqartirildi. Erkaklarning harakatdagi armiya saflariga jalb etilishi oqibatida maktablarda o‘qituvchilar etishmadi. Xotin-qizlardan pedagog kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Qisqa muddatli pedagogik kurslar tashkil etilib, xotin-qizlarni o‘qitish ishlari amalga oshirildi. Maktablarga bolalarni jalb etish, ta‘lim tizimini yo‘lga qo‘yishda, targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirishda xotin-qizlar astoydil mehnat qildilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Советский Узбекистан за 40 лет. Статистический сборник. – Ташкент, 1964. – С. 317.

2. Қашқадарё ВДА. 133-фонд, 1-рўйхат, 116-йиғма жилд, 217-варақ.
3. Қашқадарё ВДА, 2-фонд, 2-рўйхат, 37-йиғма жилд, 132-варақ.
4. Тўраева М. Ўзбекистоннинг жанубий вилоятларида маданий ҳаёт (1920–1940 йй.). – Тошкент: “Voris nashriyoti”, 2020. – Б. 44.
5. Денов туман давлат архиви, 6-фонд, 1-рўйхат, 89-йиғма жилд, 113-варақ.
6. Рахмонов Н., Умаралиев А. Совет Ўзбекистони маданияти тарихи очерклари. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1984. – Б. 73.
7. Кадыров И.К. Очерки развития общеобразовательной школы Советского Узбекистана. – Ташкент, 1974. –С. 92.
8. Қашқадарё ВДА, 1-фонд, 96 а-рўйхат, 12-йиғма жилд, 82-варақ.
9. Турдиев С. Жасорат солномаси. Қашқадарё 1941-1945 йилларда. -Тошкент: “Фан”, 2008. – Б. 278.
10. Жўракулов О. Қарши давлат университети. – Тошкент: “Фан”, 1999. – Б. 3.